



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

## 2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot




## 2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida Respublikamizda 62,7 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,8 mingtaga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 70,0 mingta (21,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 394,7 mingtani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-avgust holatiga 394,7 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,6 % savdo, 17,9 % sanoat, 8,8 % qurilish, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.08.2019 yil	
	01.08.2018 yil	01.08.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>324,6</b>	<b>394,7</b>	<b>121,6</b>	<b>100</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	24,8	29,2	117,8	7,4
Sanoat	55,7	70,5	126,6	17,9
Qurilish	28,6	34,6	120,7	8,8
Savdo	72,3	97,2	134,5	24,6
Tashish va saqlash	13,2	15,7	119,0	4,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19,9	25,3	127,2	6,4
Axborot va aloqa	7,1	8,1	113,8	2,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6,5	7,7	116,7	1,9
Boshqa turlari	96,5	106,4	110,3	27,0

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (82 192 ta), Toshkent (41 491 ta), Farg'ona (34 443 ta), Andijon (32 122 ta) va Samarqand (31 359 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (12 710 ta), Navoiy (14 750 ta) hamda Jizzax (17 383 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 376,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 67,2 mingta (21,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,6 % savdo, 17,9 % sanoat, 8,8 % qurilish, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (79 330 ta), Toshkent (35 938 ta), Farg'ona (33 973 ta), Andijon (30 659 ta) va Samarqand (29 786 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (11 793 ta), Navoiy (14 597 ta) hamda Jizzax (16 598 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil yanvar-iyul oylarida 62 726 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.


## Yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (12 505 ta), Toshkent (6 243 ta), Samarqand (5 541 ta) va Farg'ona (5 202 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (1 809 ta), Jizzax (2 707 ta), Surxondaryo (3 203 ta), Navoiy (3 740 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2 397 ta) hamda Xorazm (3 511 ta) viloyatlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (23 502 ta), sanoat (13 569 ta), qurilish (6 080 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (4 566 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (834 ta), axborot va aloqa (1 026 ta) hamda tashish va saqlash (1 969 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-avgust holatiga 316,8 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 82,5 mingta, oilaviy korxonalar - 22,6 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 204,8 mingta va boshqalar 6,9 mingtani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona



Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 9 301 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 833 taga yoki 43,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokida 9 301 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Toshkent shahri (5 563 ta), Toshkent (1 021 ta), Samarqand (477 ta) va Farg'ona (359 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Xorazm (119 ta), Sirdaryo (138 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga (136 ta) to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ning yillar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 4 726 tasi qo'shma korxonalar, 4 575 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>9 301</b>	<b>100</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	136	1,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	267	2,9
Buxoro	234	2,5
Jizzax	173	1,8
Qashqadaryo	159	1,7
Navoiy	175	1,9
Namangan	193	2,1
Samarqand	477	5,1
Surxondaryo	287	3,1
Sirdaryo	138	1,5
Toshkent	1021	11,0
Farg'ona	359	3,8
Xorazm	119	1,3
Toshkent sh.	5563	59,8


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 1 997 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 846 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Toshkent shahar (1066 ta yoki 53,4 %), Toshkent viloyati (181 ta yoki 9,1 %) va Surxondaryo viloyatlari (109 ta yoki 5,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qoraqalpog'iston Respublikasi (22 ta yoki 1,1 %), Sirdaryo viloyati (33 ta yoki 1,7 %) va Xorazm viloyati (45 ta yoki 2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-iyul oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 289 ta, Turkiya Respublikasi - 271 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 338 ta, Qozog'iston Respublikasi - 203 ta va Koreya Respublikasi - 136 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (611 ta), savdo (579 ta), qurilish (237 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (165 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (31 ta), axborot va aloqada (44 ta) hamda tashish va saqlashda (47 ta) tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-avgust holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 314,5 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-avgust holatiga qaraganda 25,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 69,7 mingtasi (22,2 %) Toshkent shahri, 30,2 mingtasi (9,6 %) Toshkent, 28,0 mingtasi (8,9 %) Farg'ona hamda 25,8 mingtasi (8,2 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 314,5 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 92,0 mingtasi (29,3 %) - savdo, 66,9 mingtasi (21,3 %) - sanoat, 32,9 mingtasi (10,4 %) - qurilish, 26,6 mingtasi (8,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,4 mingtasi (2,4 %) - axborot va aloqa sohasi, 6,0 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 14,9 mingtasi (4,7 %) - tashish va saqlash, shuningdek 44,1 mingtasi (14,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil yanvar-iyul oylarida 60,3 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,5 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (12 088 ta), Toshkent (6 040 ta), Samarqand (5 279 ta) va Farg'ona viloyatlari (5 018 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (1 739 ta), Jizzax (2 565), Surxondaryo (3 109 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2 546 ta) hamda Navoiy (3 639) viloyatlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (23 484 ta), sanoatda (13 547 ta), qurilishda (6 069 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4 532 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (743 ta), axborot va aloqada (1020 ta) hamda tashish va saqlashda (1 968 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-avgust holatiga 23 558 tani tashkil etib, ulardan 22 635 tasi yoki 96,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 62,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,6 % yoki 8 063 tasi sanoat, 21,1 % yoki 4 782 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,0 % yoki 4 765 tasi savdo, 10,3 % yoki 2 324 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 240 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 224 tasi sog'liqni

saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 216 tasi qurilish, 0,9 % yoki 210 tasi axborot va aloqa hamda 8,0 % yoki 1 811 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>7 569</b>	<b>100</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	276	3,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	114	1,5
Buxoro	531	7,0
Jizzax	194	2,6
Qashqadaryo	370	4,9
Navoiy	1 338	17,7
Namangan	134	1,8
Samarqand	1 366	18,0
Surxondaryo	293	3,9
Sirdaryo	64	0,8
Toshkent	599	7,9
Farg'ona	807	10,7
Xorazm	962	12,7
Toshkent sh.	521	6,9

2019-yil yanvar-iyun oylarida 7,6 mingga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand (1 366 ta), Navoiy (1 338 ta), Xorazm (962 ta)

va Farg'ona viloyatlari (807 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (64 ta), Andijon (114 ta) hamda Namangan (134 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 34,2 % yoki 2 587 tasi sanoat, 29,4 % yoki 2 225 tasi savdo, 19,2 % yoki 1 449 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,0 % yoki 759 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,8 % yoki 57 tasi qurilish, 0,7 % yoki 56 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 56 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 52 tasi axborot va aloqa hamda 4,3 % yoki 328 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi**  
Tel.:71-230-80-90 (91)